

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 397 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIVAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M.Mirsadikov, M.Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safayev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUTSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyturayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich

Namangan davlat texnika universiteti

"Buxgalteriya xisobi" kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-4066-7037

Email: gayratjon_akbarov100@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes va davlat-xususiy sherikligining xususiyatlari, davlat hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlik yo'nalishlari, davlat-xususiy sheriklik asosida kichik biznesni tashkil etishning afzalliklari tadqiq qilingan hamda ilmiy taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, davlatning funksiyalari va vazifalari, davlat sherigi, xususiy sherik, davlat-xususiy sherikligi.

Abstract. This article discusses about the characteristics of small business and public-private partnership, directions of cooperation between the state and business entities, the advantages of small business organization based on public-private partnership, and given scientific recommendations and proposals.

Keywords: small business, business entities, functions and tasks of the state, state partner, private partner, public-private partnership.

Аннотация. В статье раскрываются особенности малого бизнеса и государственно-частного партнерства, направления взаимодействия государства и субъектов предпринимательства, преимущества организации малого бизнеса на основе государственно-частного партнерства, а также разрабатываются научные предложения.

Ключевые слова: малый бизнес, хозяйствующие субъекты, функции и задачи государства, государственный партнер, частный партнер, государственно-частное партнерство.

KIRISH

Jahonning rivoj topgan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarini xususiy sektorsiz, jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kichik biznes va tadbirkorlik bugungi kunda yalpi ichki mahsulot hajmini ko'paytirish, bandlikni ta'minlash va iqtisodiy yuksalish kabi muhim yo'nalishlarda katta ulush qo'shmoqda.

Kichik biznes muhit va sharoitga moslashuvchanligi bilan yirik biznesdan ajralib turadi. Uning faoliyatini boshlashi uchun katta miqdorda mablag' talab qilinmaydi. U har qanday soha va tarmoqlarda birdek samarali faoliyat olib borishi, resurslardan samarali foydalanishi, mehnat unumdorligini oshirishi, ishsizlikni hal etishi, kichik va o'rta mulkdorlar toifasini shakllantirishi hamda bozorni iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan to'ldirishda qator afzalliklarga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlik, uni davlat-xususiy sherikligi asosida tashkil qilish va rivojlantirish masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, niderlandiyalik tadqiqotchilar Stefan Verweij va Ingmar van Meerkerk davlat-xususiy sherikligining transport infratuzilmasidagi ishtirokini ta'kidlab, avtomobil, temir yo'llari va suv yo'llari kabi obyektlarni tashkil qilish va boshqarishdagi munosabat ekanligini qayd etadilar [1].

Xitoylik olimlar C. Cui, Y. Liu va boshqalar tomonidan davlat-xususiy sheriklikka oid butun dunyodagi ilmiy izlanishlar asosida, ushbu yondashuv infratuzilma sohalari qiymatini oshirishga mo'ljallangani hamda davlat infratuzilmasining keng doirasini qamrab olishi tadqiq qilingan [2].

O'zbek olimlaridan tadqiqotchi N. Shavkatov tomonidan "Davlat-xususiy sherikligi — davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va xizmatlarni taqdim etishga mo'ljallangan strategik, institutsional va iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik shakli hisoblanadi", degan ta'rif berilgan [3].



Xalqaro moliya tashkilotlari ham o'z loyihalarini amalga oshirishda tez-tez DXSH mexanizmlariga murojaat qiladilar. Xususan, Xalqaro Valyuta Fondi "DXSH — davlat tomonidan an'anaviy tarzda ta'minlanadigan infratuzilma obyektlari va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan taqdim etishga qaratilgan kelishuvdir", deya ta'riflaydi [4].

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, "davlat-xususiy sheriklik" atamasining mazmun-mohiyati, ahamiyati, maqsadi va vazifalari, tarkibi, modellari, davlat va kichik biznes subyektlari o'rtasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari, uning afzalliklari, xizmat ko'rsatish sohalarida davlat-xususiy sherikligining asosiy shakllari va omillariga oid qator hal bo'lmagan ilmiy muammolar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot mobaynida kichik biznes subyektlarining tasniflanishi, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini realizatsiya qilish, iqtisodiy sohalarida davlat-xususiy sherikligining asosiy shakllari, xususiyatlari bo'yicha iqtisodiy tizim va nisbatlarni o'rganish uchun dialektik, tizimli va ilmiy yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyodagi taraqqiy topgan hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarni xususiy sektor, jumladan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarisiz tasavvur etish qiyin. Ular bugungi kunda aholi bandligini ta'minlashda, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishda va iqtisodiy o'sish kabi muhim jabhalarda munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlik tarixiy ildizga ega bo'lib, hududlarda azaldan hunarmandchilik rivojlangan. Kasantilik, to'qimachilik, amaliy san'at, kulolchilik, kosibchilik, temirchilik kabi mayda biznes bilan shug'ullanuvchi ustaxonalar mavjud bo'lgan.

Bozor munosabatlarining ustunlaridan bo'lgan mulk shakllarining va biznes shakllarining turli-tumanligi hozirda aholining farovon turmush tarziga, ularning bandligiga, sog'lom raqobat muhitining mavjudligiga hamda davlat budjeti daromadlarining ko'payishiga xizmat qilayotgani isbot talab etmaydi. Shunday ekan, ko'plab davlatlar kichik va o'rta toifadagi biznes shakllarini rivojlantirishga e'tibor bermoqda (1-jadval).

1-jadval. Dunyo mamlakatlarida kichik va o'rta biznesning ulushi¹

Davlatlar	YAIM hajmidagi ulushi (foizda)	Aholi bandligidagi ulushi (foizda)	Tadbirkorlik subyektlari sonidagi ulushi (foizda)
Xitoy (2024-yil)	60	80	99
Rossiya (2020-yil)	19.8	18.8	27
Yaponiya (2024-yil)	55,3	69,7	99,7
Qozog'iston (2024-yil)	39,7	47,6	91,4
O'zbekiston (2025-yil)	54,3	74	89,7

Dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlar hamda qator mamlakatlar hisobotlarida kichik biznes o'rta biznes bilan birgalikda yaxlit holda hisob yuritiladi. Bizningcha, ushbu biznes shakllari o'rtasida iqtisodiy va tuzilmaviy yaqin o'xshashlik mavjudligidan dalolat beradi. Xususan, BMT, Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon bankining rasmiy sahifalarida "Small and medium-size enterprises" (SMEs) atamasi, ya'ni "kichik va o'rta korxonalar", muntazam qo'llaniladi.

Jahon Savdo Tashkiloti 10 tadan 250 nafargacha ishchi xodimlarga ega tadbirkorlik subyektlarini kichik va o'rta biznes sifatida e'tirof etadi [5].

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish ikki huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi. Bular Vazirlar Mahkamasining 2016-yilning 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son²li qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 10-fevraldagi "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son³li Farmoni hisoblanadi.

¹ Statistik va internet ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

² <https://lex.uz/ru/docs/-3019918>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6379809>

VMning 275-sonli qarorida kichik tadbirkorlik subyektlarini tasniflashda ko'rsatkich sifatida ishchilarning o'rtacha yillik soni asos qilib olingan. Unga ko'ra tarmoqlar va sohalar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlari 1–20 nafargacha bo'lsa mikrofirmalar, 21–200 nafargacha bo'lsa kichik korxonalar deb tan olingan [6].

Yuqoridagi PF-21-sonli Farmonda esa O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari 2-jadvalga binoan toifalarga ajratiladi (2-jadval):

2-jadval. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining toifalari⁴

T/r	Tadbirkorlik subyektlari tasnifi	Bir yil davomida daromadi (mlrd.so'mda)
1	Kichik tadbirkorlik subyektlari	
	yakka tartibdagi tadbirkorlar	
	mikrofirmalar	1 mlrd.so'mgacha aylanma
	kichik korxonalar	1 mlrd.so'mdan 10 mlrd.so'mgacha aylanma
2	O'rta tadbirkorlik subyektlari	10 mlrd.so'mdan 100 mlrd.so'mgacha aylanma
3	Yirik tadbirkorlik subyektlari	100 mlrd.so'mdan yuqori aylanma

Farmon asosidagi ushbu tasnif qoidalari korxonalar va tadbirkorlarni tasniflashda urg'uni ularning yillik aylanmasiga beradi [7]. Fikrimizcha, yuqorida ko'rib o'tilgan Vazirlar Mahkamasining tasnifi statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishda qo'llanilsa, farmon asosidagi toifalash soliq ma'muriyatchiligi (moliyaviy-soliq hisobotlarini yuritish, preferensiyalarni qo'llash) va soliqqa tortish masalalarida keng foydalanilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes, tadbirkorlik va shu orqali jamiyat farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani haqiqat. Ayni paytda O'zbekiston iqtisodiyotiga kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari salmoqli hissa qo'shmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat YAIMning yarmidan ko'prog'i, ya'ni 54,3 foizi ushbu subyektlarga to'g'ri keladi. Kichik va o'rta biznes subyektlari soni umumiy miqdorning 89,7 foizini, iqtisodiyot tarmoqlarida band aholining 74 foizini qamrab olgan [8].

Xalqaro amaliyotda DXSHning turli modellari mavjud bo'lib, ushbu modellar sirasiga quyidagilar kiradi.

1. Qurish–o'zi foydalanish (BOO — Build-own-operate) modeli. Bunda xususiy sektor mol-mulkni davlatga topshirish majburiyatisiz DXSH obyektni loyihalashtiradi, quradi, egalik qiladi, rivojlantiradi, foydalanadi va boshqaradi.

2. Sotib olish–qurish–foydalanish (BBO — Buy-build-operate) modeli. Bu modelda xususiy sektor davlatdan mavjud mol-mulkni DXSH obyektni sotib oladi yoki ijaraga oladi, yangilaydi, modernizatsiya qiladi yoki kengaytiradi hamda keyinchalik davlatga topshirish majburiyatini olmaydi.

3. Qurish–foydalanish–topshirish (BOT — Build-operate-transfer) modeli. Xususiy sektor aktivni loyihalashtiradi, quradi va undan foydalanadi, biroq sheriklik bitimi muddati yakunlangach, kelishilgan davrda uni davlatga qayta topshiradi.

DXSHning kichik biznes rivojidadagi quyidagi afzalliklari mavjud:

- iqtisodiyotning davlat sektoriga kirishni qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy mamlakatlar tajribasidan kengroq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;
- “win–win” qoidasi (hamma tomonning manfaati) asosida davlat, tadbirkorlar va pirovardida jamiyat manfaat ko'rishi;

- kichik biznesning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish imkoniyatiga ega bo'lishi.

2025-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish parametrlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- kichik va o'rta biznesning mamlakat YAIMdagi ulushini 55 foizga, aholi bandligini ta'minlashda 75 foizga yetkazish;

- 600 nafardan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlarining yirik biznes shakliga aylanishiga ko'maklashish;
- tashkil etilgan maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida davlat-xususiy sheriklikka asoslangan holda infratuzilmani yaxshilash;

- 2025-yil 1-maydan boshlab “o'zini o'zi band qilgan shaxs — yakka tartibdagi tadbirkor — kichik biznes — o'rta biznes — yirik korxona” zanjiri asosida tadbirkorlik subyektlarining yiriklashuvini rag'batlantirish maqsad qilingan [9].

4 Statistika va internet ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznesning davlat-xususiy sherikligi asosidagi loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantiradigan samarali va shaffof siyosat, huquqiy va institutsional asoslarning mavjudligini ta'kidlash mumkin. Bu borada davlat institutlari tomonidan qonuniy-huquqiy baza yaratilgan.

Shuningdek, tadqiq qilinayotgan sohaga oid quyidagi takliflarni bermoqchiman.

1. Respublikada tadbirkorlik subyektlarini toifalash yuqorida ko'rilgan ikki alohida huquqiy hujjatga asosan turli tasniflash tizimi orqali amalga oshirilmogda. Turli noaniqliklarni oldini olish, yagona statistik va xalqaro ko'rsatkichlarga ega bo'lish maqsadida ushbu ikki tasniflash tizimini xalqaro andozalardan kelib chiqib birlashtirish, kichik biznes va tadbirkorlik sohasida yagona me'yoriy-huquqiy hujjat (masalan, Tadbirkorlik kodeksi) qabul qilib amaliyotga joriy qilish.

2. Tadbirkorlik subyektlarini tasniflashda yillik aylanma so'm hisobidagi qat'iy summaga emas (amalda 1 mlrd so'mgacha, 1–10 mlrd so'm oralig'ida, 10–100 mlrd so'm oralig'ida, 100 mlrd so'mdan ortik yillik aylanma e'tiborga olinmogda), balki asosiy iqtisodiy normativ hisoblangan bazaviy hisoblash miqdoriga bog'lash maqsadga muvofiq. Masalan, bazaviy hisoblash miqdorining ma'lum bir baravarigacha aylanmaga ega subyektlarni kichik biznes vakillari sifatida belgilash, o'rta va yirik biznesni ham shu mantiq asosida toifalash. Shunda yillik iqtisodiy o'sish va inflyatsiya ko'rsatkichlari ham inobatga olingan hisoblanadi.

3. Davlat-xususiy sherikligi mexanizmlaridan foydalanish orqali zarur infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni bajarishda hamda ularni monitoring qilishda davlat bilan kichik biznes o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Stefan Verweij va Ingmar van Meerkerk, "Do public-private partnerships achieve better time and cost performance than regular contracts?", *Public Money & Management*, 2021, vol. 41, no. 4, 286–295.
2. C. Cui et al., 2018. Review of studies on the public-private partnerships (PPP) for infrastructure projects, *Int. J. Proj. Manag.* <https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2018.03.004>.
3. Н. Шавкатов, "Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари: амалиёт ва ривожлантириш истиқболлари". "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий журнали. №1, февраль, 2022 йил.
4. Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.
5. Micro, small and medium-sized enterprises. https://www.wto.org/english/thewto_e/minist_e/mc11_e/briefing_notes_e/bfmsmes_e.htm.
6. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси, Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr>.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025-йил 19-мартдаги "Кичик ва ўрта бизнеснинг иқтисодиётдаги ўрнини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-50-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/7444738>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100